

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” ASARIDA KOSMOGONIK SO’ZLAR SINONIMIYASI

Yo’ldoshev Ibrohim Jo’rayevich

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti “O’zbek tili va adabiyot”
kafedrası filologiya fanlari doktori, professor.*

E-mail: ibrohimyuldashev0101@gmail.com

Eshboltayeva Iroda Abduvali qizi

*Nizomiy nomidagi O’zbekiston milliy pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti O’zbek tili va adabiyoti
yo’nalishi I-bosqich talabasi.*

E-mail: irodaeshboltayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola so’z san’atining dahosi bo’lmish, sharq-u g’arbda g’azallari va ko’plab dostonlari bilan tanilgan Alisher Navoiy “Xamsa” sining to’rtinchi dostoni bo’lgan “Sab’ai sayyor” asarida keltirib o’tilgan ba’zi kosmogonik so’zlarning sinonimik tahliliga bag’ishlandi. Shuningdek, mazkur maqolada koinot, osmon jismlari va u bilan bog’liq hodisalarni ifodalovchi leksik birliklarning ma’nodoshligi o’rganilgan, bu esa bizga Navoiy asarlaridagi badiiy tilni chuqurroq o’rganishimiz, balki Navoiy merosini yanada to’liq anglashimiz va qadrlashimizga yordam beradi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, “Sab’ai sayyor”, sinonimik tahlil, majoziy ma’no, leksik tahlil, kosmogonik so’z.

Аннотация. Статья посвящена синонимическому анализу некоторых космогонических слов, приведённых в произведении “Сабай сайёр” – четвёртом эпосе “Хамсе” Алишера Навои, гения словесного искусства, известного на Востоке и Западе своими газелями и многочисленными эпическими произведениями. Также в статье исследуется семантическая сочетаемость лексических единиц, обозначающих вселенную, небесные тела и связанные с ними явления, что поможет глубже изучить художественный язык произведений Навои, а также полнее понять и оценить его наследие.

Ключевые слова: Алишер Навои, “Сабай сайёр”, синонимический анализ, переносное значение, лексический анализ, космогоническое слово.

Annotation. This article is devoted to the synonymous analysis of some cosmogonic words cited in the work “Sab’ai sayyor”, the fourth epic of “Khamsa” by Alisher Navoi, a genius of word art, known in the East and West for his ghazals and numerous epics. Also, this article studies the semantic compatibility of lexical units denoting the universe, celestial bodies and related phenomena, which will help us to study the artistic language in Navoi’s works in more depth, as well as to more fully understand and appreciate Navoi’s heritage.

Keywords: Alisher Navoi, “Sab’ai sayyor”, synonymous analysis, figurative meaning, lexical analysis, cosmogonic word.

So'z mulkingning sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiy adabiy tilimizni kamolotga yetkazishda o'z hissasini qo'shgan haqiqiy komil insondir. Biz uning asarlari orqali dunyoni anglashimiz, ma'naviy dunyoqarashimizni yanada boyitishimiz mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiy o'z asarlarida qalamga olgan jozibali terminlari orqali inson qalbi va his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qilgan. Mana shunday asarlardan biri bu "Sab'ai sayyor" dostonidir. "Sab'ai sayyor" ["Yeti sayyora"] Navoiy "Xamsa" asariga kiritgan to'rtinchi dostoni bo'lib, ishqiy-sarguzasht xarakterda yozilgan. Bu asar ham qolgan asarlar kabi hamd, munojot va na't bilan boshlanadi. Bu asarda yozuvchi so'zlarni kuchli mahorat bilan qo'llaydiki, qoyil qolmay iloj yo'q. U har bir yozgan leksikasini falsafiy ma'no-mazmun bilan tasvirlaydi. Navoiy o'z asarlarida so'z atalmish durdonalarga alohida e'tibor bergan, chunki bu insonlar qalbiga chuqur kirib borish, balki asar qiymatini oshirishga ham xizmat qilib kelgan. "Sab'ai sayyor" asarini tahlil qilishda, shuningdek, unda keltirilgan so'zlar jozibasi va ularning mazmun, mohiyatini o'rganishda bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Mazkur maqola aynan Navoiy asarlaridagi ayrim kosmogonik so'zlarning sinonimik, estetik va majoziy xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Asar nazmda yozilgan bo'lsa-da, juda ko'p purma'no so'zlar asosiga qurilgan, shu sababli Navoiyni so'z mulkingning sultoni deya ulug'laydilar. "Xondamirning ma'lumot berishicha, bir kuni Navoiy Lutfiy huzuriga borganida, "malik-ul kalom" undan yangi yozgan g'azalini o'qib berishini so'raydi. Navoiy o'zining

Orazin yopqoch ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh

matla'si bilan boshlanuvchi g'azalini o'qiydi. Shunda Lutfiy agar imkoni bo'lganida, o'zining 10-12 ming forsiy va turkiy tilda bitilgan baytlarini shu g'azalga almashtirishini aytib, shoirning iste'dodiga yuksak baho beradi"¹⁷

Alisher Navoiy nafaqat so'z san'atining betakror dahosi, balki o'z davrining yirik ilm sohalaridan biri bo'lgan astronomiya ilmini ham chuqur anglab, uni badiiy tafakkuri bilan uyg'unlashtira olgan alloma edi. Uning ijodida koinot tuzilishi, yulduzlar harakati va samoviy uyg'unlik haqidagi qarashlar bevosita ilmiy bilimlar bilan boyitilgan. Bu gaplar misoli sifatida bevosita "Sab'ai sayyor" asarini aytishimiz mumkin. Chunki bu asarni kosmogonik so'zlar asosiga qurilganligini aytishimiz mumkin.

Alisher Navoiyning so'z qo'llash mahoratiga amin bo'lish maqsadida quyida yuqoridagi fikrlar misoli sifatida bir qancha so'zlarni ko'rib chiqamiz. "Sab'ai sayyor" asarida keltirilgan ko'k so'zi "rang" ma'nosi bilan birga "osmon" ma'nosini ham anglatgan. Shuningdek, bu so'z Navoiy asarlaridagi sipehr, kox, aflok, charx, gardun so'zlariga bevosita sinonim bo'la oladi, chunki ko'k so'zi "yer yuzida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami", ya'ni "osmon" ma'nosini ham anglatadi. Sipehr [سپهر] forsha "osmon", "falak", "ko'k" degan ma'nolarni anglatadi.

Chekting etganda dahr bunyodin,

Yeti gumbad sipehri minodin,

¹⁷ Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. I kitob. Darslik. – T.: Tamaddun, 2018. – B. 21

Sun'ung etti bu yetti koxi rafi',
Najm gavharlari bila tarsi'¹⁸

Biz bu misralarni yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida olishimiz mumkin. Shuningdek, **aflok** so'zi ham sipehr so'ziga sinonim bo'la oladi. Aflok [arabcha لافلاك] so'zi ko'plik ma'nosida "osmonlar" degan ma'noni anglatadi va bu Navoiy asarlarining ko'pchiligida "osmon" ma'nosida qo'llangan. Misol uchun:

Chu aflok tarxig'a chekting Qalam
Xavo safxasig'a chekildi raqam.
To'quz gumbad ul nav chekting baland
Ki vahm anda rust aylay olmas kamand.¹⁹

Navoiy bu asarida ham aflok [osmon] so'zidan mohirlik bilan foydalanadi. Bu so'zlarga sinonim sifatida, charx so'zini ham misol qilishimiz mumkin. Charx so'zi [چرخ] forscha "aylanmoq", "burilmoq" kabi ma'nolarni anglatib, osmon, falak, aflok so'zlariga bevosita sinonim bo'la oladi. Bu so'zning yaqqol misolini Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarida ko'rishimiz mumkin.

Vafosiz dunyoga dil
Berma zinhor,
Hech kimga do'st
bo'lmas charxi kajraftor²⁰

Bundan tashqari, gardun [گردون] fors tilidan olingan bo'lib, "osmon", "falak", "ko'k" kabi ma'nolarni anglatadi va bu so'zni boshqa o'rinlarda [Majoziy ma'noda "tutun gardunig'a xirom bog'lamoq" - fig'oni chiqmoq] ham ishlatishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida esa quyidagi baytlarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

Ичти Баҳром жоми нилуфарий
Тавнадеким ёсолғай ул сипарий.
Анга тегруки гунбази гардун
Айлади ложувардини шабгун²¹

Shu bilan birga yana shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy ko'plab boshqa ma'nodosh so'zlardan ham, o'z o'rnida ustalik bilan foydalanadi. Masalan, bugungi kundagi dunyo, olam [دُنْيَا, عَالَم] kabi so'zlarni Navoiy lug'atida boshqa shakllarda ko'p uchratamiz. Bu so'zlar: korgox, dahr, arz, iqlim hamda jahon. Mutafakkir asarlarida keltirgan korgox [کارگاه] [fors-tojikcha "ish joyi", "mehnat qilinadigan o'rin"] so'zi, ko'p hollarda falsafiy-ramziy ma'noda ishlatilgan bo'lib, "dunyo", "yaratish maydoni" ma'nolarida kelgan. Shuningdek, dahr so'zini ham ko'plab adabiyotlarda "olam" va "jahon" ma'nolarida kelganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'z arab

¹⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'ninchi tom. Xamsa, Sab'ai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1992. - B. 2.

¹⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'ninchi tom. Xamsa, Sab'ai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1993. - B. 4.

²⁰ Sa'diy Sheroziy. Guliston. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - B. 4

²¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'ninchi tom. Xamsa, Sab'ai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1993. - B. 299.

tilidan olingan [دهر] bo'lib, “vaqt”, “zamon” kabi ma'nolarga ega bo'lsa-da, Navoiy leksikasida dunyo ma'nosida juda ko'p qo'llangan. Bunga misol qilib, Alisher Navoiyning “sittai zaruriya” asaridan iqtibos keltirsak:

To'rt tabiat (fasl)ni dahr gulshanida joriy etding:

Biri bahor, boshqasi yoz, yana kuz-u qishdir²²

Bu asarda ham dahr so'zi “jahon” ma'nosida kelganini k'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu so'zlarga bevosita arz so'zini ham sinonim qilishimiz mumkin. Arz [أرض] so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “jahon”, “dunyo”, “olam” kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu so'zni “olam” ma'nosida Navoiy, Jomiy, Uvaysiy kabi ko'plab adabiyot namoyondalarida ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar,

Arz to samo uzra mojaru Uvaysiyman.²³

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu so'zni hech ikkilanishsiz “zamin”, “olam-jahon” ma'nosida qo'llashimiz mumkin. Shuningdek, biz bilamizki, iqlim so'zi [arabcha [ko'plik “aqolim”] “mintaqa”, “qit'a” kabi ma'nolarni anglatadi] ko'p holatlarda, ya'ni Navoiy ijodida “olam”, “dunyo” ma'nolarida kelgan. Shu bilan birga jahon [جهان] [forscha. “olam”, “dunyo”] so'zi ham to'g'ridan to'g'ri yuqorida keltirilgan nutq birliklariga ma'nodosh deya olamiz. Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda bu so'zni jahongir sifatida o'zgartirilib, o'g'il farzandlarga qo'yilmoqda. Sa'diy Sheroziyning quyidagi misralarini keltiramiz:

Bu jahon hech kimga qolmas, birodar,

Dilingni tangriga topshirsang yetar.

Tayanch deb bilmagil bu dunyo molin,

Ko'plarni o'stirib, berdi zavolin.

Jon berar ekansan, farqi yo'q sira,

Taxtda o'lasanmi, yo tuproq uzra.²⁴

Bundan tashqari, Navoiy leksikasida najm, kavkab, sitora kabi so'zlarni ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu so'zlar hozirgi o'zbek tilining “yulduz” so'ziga to'g'ri keladi. Najm [نجم] so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “yulduz”, “samoviy yoritqich” kabi ma'nolarni anglatadi va bu so'z Navoiy adabiyotida juda ko'p qo'llanilgan. Masalan:

Зайд ўлди фалакрав узра роқиб,

Сурди андоқки нажми соқиб.

Ул тез қабила сори сурди,

Мажнун дағи ёнди пўя урди.²⁵

²² Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. [Oltinchi zaruriy qasida]. Sittai zaruriya. – T.: Fan nashriyoti, 2008. – B. 12.

²³ <https://tafakkur.net/uvaysiyman-radifli-gazal/jahon-otin-uvaysiy.uz>

²⁴ Sa'diy Sheroziy. Guliston.-T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B. 14.

²⁵ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'qqizinchi tom. Xamsa, “Layli va Majnun”. -T.: Fan nashriyoti, 1992. – B. 187.

Shuningdek, ushbu soʻzga kavkab soʻzini ham sinonim qilib olishimiz mumkin. Chunki, kavkab [كوكب] soʻzi arabcha “yulduz” degan maʼnoni anglatadi va bu soʻzni Navoiy, najm soʻziga sinonim qilib olgan deyishimiz mumkin. Bunga esa misol tariqasida quyidagi baytni keltirishimiz mumkin:

Меҳр худ кавкаби жалолатидин,
Ёрга кирмиш эди хижолатидин,
Савлатиға чу солди кўз Баҳром,
Тиғиға берди қин аро ором.²⁶

Bu soʻzlarga sinonim sifatida sitora soʻzini ham keltirsak boʻladi. Chunki sitora termini ham Navoiy asarlarida ushbu soʻlarning sinonimi sifatida keltirilgan va sitora [ستاره] soʻzi fors tilidan olingan boʻlib, yuqoridagi atamalardek “yulduz” degan maʼnoni anglatadi. Alisher Navoiy ham bu soʻzdan koʻp oʻrinlarda juda oʻrinli foydalangan va bunga namuna keltiradigan boʻlsak:

Айлабон ушбу боғуқасрда сур,
Шаҳрисабз элин айлабон масрур.
Васл топти фаришта бирла пари,
Меҳр бирла ситораи саҳари.²⁷

Bu baytlarda ham yuqorida taʼkidlagan maʼnolarni koʻrishimiz mumkin. Hozirgi kunda bu soʻz qizlar ismi oʻrnida ham qoʻllanilib “yulduz”, “toleyi baland qiz”, “yulduz kabi porloq” maʼnolarida qoʻllaniladi. Shuningdek, Navoiyning bu asari asosi boʻlmish sayyor [سیار] “sayr etuvchi”, “kezuvchi”] soʻzi hozirgi kunda sayyora shakliga oʻtishiga qaramasdan, hamma uchun tushunarli soʻz hisoblanadi. Bundan tashqari, Navoiy ushbu asarda, Zuhali, Mirrix, Mushtariy, Zuhra kabi yulduzlar nomi yaʼni sayyorlarni yozib oʻtgan. Zuhali [زحل] arab tilidan olingan soʻz boʻlib, “quyosh sistemasining 6-katta sayyorasi”, “Saturn” deb yuritiladi.

Yetinchiga chun obir aylab samand,
Saodatdin oʻlub Zuhali bahramand.
Boʻlub dafʼ aning borchasi nahsiyati,
Quli boʻlub aning saodat oti.²⁸

Bu yerda ham koʻrib turganingizdek, Zuhali termini nafaqat yulduz yaʼni sayyora maʼnolarini anglatib kelgan, balki bu soʻzni koʻp holatlarda majoziy maʼnoda kelganini koʻrishimiz mumkin. Masalan, “balandlik, ulugʻlik” maʼnolarida, “yetishish mushkul narsalar, olis orzular” maʼnosida, shu bilan birga “sabr, ogʻirlik” maʼnolarida kelishi mumkin. Shuningdek, hozirda biz nutqimizda faol qoʻllayotgan Mars soʻzining qadimiy koʻrinishi boʻlgan Mirrix [مریخ] soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, “quyosh sistemasining 4-sayyorasi”, “Mars” hisoblanadi. Ushbu

²⁶ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Oʻninchi tom. Xamsa, Sabʼai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1992. - B. 21.

²⁷ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Oʻninchi tom. Xamsa, Sabʼai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1992. - B. 254.

²⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. Yigirma tomlik. Oʻn birinchi tom. Xamsa, Saddi Iskandariy. -T.: Fan nashriyoti, 1993. - B. 25.

so'zni ko'plab adabiyot namoyandalarida ko'rishimiz mumkin. Masalan, Abdurauf Fitratning "Mirrix yulduziga" nomli she'ridan misol keltirsak:

Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar.
O'rtoq qonin qonmay ichkan zuliklar,
Qardosh etin to'ymay yigan qoplonlar.
Bormi senda o'ksuz yo'qsulning qonin
-Gurunglashib, chog'ir kabi ichkanlar?...²⁹

Bu yerda ham Mirrixga ya'ni Mars yulduziga aytilgan Fitratning so'zlarini aslida unga aytilayotgan nola sifatida qabul qilishimiz kerak. Hozirgi kunda Mushtariy emas, balki Yupiter so'zi orqali oson va tez tushuna olamiz. Chunki bu so'z hozirgi o'zbek lug'atida Yupiter so'zi bilan sinonim hisoblanadi. Mushtariy [مريخ] so'zi arabchadan olingan bo'lib, "sayyora nomi" kabi ma'noni anglatadi. Shu bilan birga, ushbu so'z Yupiter so'zining arabcha nomi ham hisoblanadi. Bu so'zga isbot tariqasida quyidagi misolni keltirsak bo'ladi:

Chu oltinchig'a yetkurub rahbari,
O'qub xutbayi davlatin Mushtariy.
Duosig'a minbarda chun qo'l ochib,
Boshig'a falak naqdi anjum sochib.³⁰

Ushbu so'z "yulduz" ma'nosi bildiradi, balki qizlar uchun ham ajoyib ism bo'la oladi. Chunki bugungi kunda Mushtariyxon, Mushtariybonu kabi shakllarda ko'p uchratishimiz mumkin va bu ismning ma'nosi "sotib oluvchi" yoki "xaridor" ma'nolarini ham anglatadi. Endi esa Zuhra [زهره] so'ziga to'xtalib o'tsak, ushbu so'z ham xuddi yuqoridagilar kabi arab tilidan olingan bo'lib, "yulduz" ma'nosini anglatib, venera [quyosh sistemasidagi ikkinchi sayyora] so'zining arabcha ko'rinishi hisoblanadi. Shuningdek, bu so'z "qadimgi Rim sevgi va muhabbat ma'budasi" kabi ma'noda ham qo'llaniladi. Bu so'zni yulduz ma'nosida qo'llanganligini ushbu misol orqali ko'rishimiz mumkin:

Кўруб уммийи илмлар махзани,
Равон илм касб этмак ўлди фани.
Учунчи сори чун шитоб айлабон,
Фалак Зухраға эҳтисоб айлабон³¹

Qo'shimcha qilib yana shuni aytishimiz mumkinki, bu so'z yuqorida aytib o'tganimizdek, qizlarga ism vazifasini ham bajaradi va bugungi kunda bu ismni egizak qiz farzandlarning biriga ya'ni "Fotima Zuxra" qilib ism qo'yish bir urfga aylangan deyishimiz ham mumkin. Ushbu ismning ma'nosi "nurli", "yorqin", "ravshan", "porloq" kabi ma'nolarni anglatadi va shuningdek, Cho'lpon yulduzidek go'zal, baxtli, ko'rkam va ko'plarga intiluvchan bo'lishini

²⁹ <https://tafakkur.net/mirrix-yulduziga/abdurauf-fitrat.uz>

³⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n birinchi tom. Xamsa, Saddi Iskandariy. -T.:Fan nashriyoti, 1993. - B. 25.

³¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n birinchi tom. Xamsa, Saddi Iskandariy. -T.:Fan nashriyoti, 1993. - B. 25.

ham ifodalaydi. Qo'shimcha qilib aytganda, Zuhro Muhammad [sollallohu alayhi vasallam]ning qizi Fotimaning sifati [laqabi] ham bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlarini tushunishimizda bizga ko'proq yordam beradigan vosita bu Navoiy davrida yaratilgan asarlarni ko'roq o'qish va bugungi muqobil varianti bilan solishtirib, taqqoslashdir. Bu maqolada esa yuqorida bot-bot ta'kidlaganimizdek, Navoiyning "Xamsa"sig'a kiruvchi to'rtinchi dostoni, ya'ni "Sab'ai sayyor" tarkibidagi ba'zi kosmonogik so'zlar sinonimiyasini tahlil qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mumtoz adabiy asarlar o'quv lug'ati. -T.: "O'qituvchi", 1994. - 272 b
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. (Oltinchi zaruriy qasida). Sittai zaruriya. -T.: Fan nashriyoti, 2008. - 134 b
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. To'qqizinchi tom. Xamsa. "Layli va Majnun". -T.: Fan nashriyoti, 1992. - 377 b
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'ninchi tom. Xamsa. Sab'ai sayyor. -T.: Fan nashriyoti, 1992. - 491 b
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami Yigirma tomlik. O'n birinchi tom. Xamsa. Saddi Iskandariy. -T.: Fan nashriyoti, 1993. - 727 b
6. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Navoiyshunoslik. I kitob. Darslik. – T.: Tamaddun, 2018. –519 b
7. Sa'diy Sheroziy. Guliston.-T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. - 151 b
8. Ismlar.com — O'zbek va dunyo ismlarining ma'nosi. <https://ismlar.com/name/Zuhra>
9. <https://tafakkur.net/uvaysiyman-radifli-gazal/jahon-otin-uvaysiy.uz>
10. <https://tafakkur.net/mirrix-yulduziga/abdurauf-fitrat.uz>